

# O`QITUVCHILAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Ismoilov To`ychi Djabborovich*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta`lim kafedrası dotsenti,  
Jizzax, O`zbekiston  
e-mail:ismoilov\_t@jspi.uz*

***Annotatsiya:** Maqolada o`quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirishga yo`naltirilgan tarbiyaviy ishlarda o`qituvchilar kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so`zlar:** raqobatbardosh, mutaxassis, malaka, yuksak, insoniy, fazilat, kasb, xalq, sodiq, jamiyat, fuqaro, mas`uliyat.*

\*\*\*

***Аннотация:** В статье излагается мысли о развитие технологической компетентности учителей направленной к совершенствованию учебной деятельности учащихся.*

***Ключевые слова:** конкурентоспособность, специалисты, квалификация, высокий, человечность характер, профессия, народ, бывший, общество, граждан, ответственность.*

Hozirgi kunda ijtimoiy-iktisodiy rivojlanish bosqichida jamiyatimiz malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish muammosini qo`ymoqda. Shu munosabat bilan oliy ta`lim tizimi oldida jamiyat uchun faqat chuqur bilimli, kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qila oladigan haqiqiy raqobatbardosh, muayyan mutaxassislik malakalarini egallagan shaxslarnigina emas, balki ayni vaqtda davr talablariga javob bera oladigan, yuksak insoniy fazilatlarga hamda chuqur kasb sohibi va uning fidoyisi, xalqiga sodiq, jamiyatda fuqarolik kasb va mas`uliyatini yaxshi anglagan, o`z vatanining madaniyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini ado etishni talab etadi. Buning uchun: O`quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirishga yo`naltirilgan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda quyidagi texnologiyalarni jonlantirish ko`zda tutiladi.

**Press-anjuman** - anjumanni o'tkazish uchun siyosiy sharxlovchilar, deputatlar, veteranlar, turli soha mutaxassislari, madaniyat, san'at va sport bo'yicha fidoyi xodimlar taklif etilishi yoki maxsus tayyorgarlik ko'rgan siyosiy sharxlovchilar o'tkazishlari maqsadga muvofiq. Ularga oldindan (yoki uchrashuv vaqtida) o'quvchilarni qiziqtirgan bir necha savollar beriladi. Savollarni maxsus press-guruh a'zolari berishadi, javobni anjumanga taklif etilganlar beradi.

**Fantastik loyihalar tanlovi** - tanlov qatnashchilari rasmlar, chizmalar, sxemalar, diagrammalar, kompyuter grafiklari, slaydlar, videomateriallar yordamida tanlagan mavzu asosida tayyorlangan fantastik loyihalarini taqdimot qiladilar. Taqdimot yakkama-yakka yoki guruh, tartibida o'tkaziladi. Masalan, «Bizning o'quv maskanimiz 2050-yilda», «Quyosh energiyasi insonga», «Planetalararo yo'lovchi kemalar» va h.k.lar loyiha mavzusi bo'lishi mumkin. Loyihalar taqdimoti tugagach, savollarga javoblar beriladi, opponentlarning chiqishlari bo'ladi. Eng yaxshi ilmiy-fantastik loyihalar diplom va mukofotlar bilan taqdirlanadi

**Jumboklar bozori** - ishtirokchilarning qiziqarli jumboqlarni topish va sotib olish musobaqasi. Jumboqni sotib olish uchun yangi bir jumboq aytilishi kerak. Bu bozordagi jumboqlar har xil: rasmlari, og'zaki, yozma, predmetli, kompyuterli, ko'rgazmali, ijodiy va xokazo.

**Adabiy karnaval** - turli badiiy adabiyot qaxramonlari kostyumini tayyorlash va himoya qilishga, obrazga kirishga va uni himoya qilishga yo'naltirilgan.

**Dunyoning etti mo'jizasi** - har bir guruh dunyoning etti mo'jizasidan birini olib, materiallar to'playdi. Masalan: "Toj mahal", "Misr piramidalari" va b. bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi. Tayyorgarlikka bir necha kun vaqt beriladi. To'plangan materiallarni guruhlar texnik vositalar yordamida taqdimot qiladilar.

**Ishontirish maktabi** - har bir kichik guruh tanlangan mavzu bo'yicha boshqalarni ishontirish bo'yicha topshiriq oladi. Masalan, «Chekish - umr zavoli», «Yo'l harakati qoidasi - umr foydasi», «Alkogol - bu zahar» va hokazo.

O'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning asosiy yo'llaridan – o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberilizatsiya etishni innovatsion holat deb qaraladi.

Darsni insonparvarlashtirish:

- hamkorlik;
- o'quvchiga g'amxo'rlik;
- e'zozlash;
- kechirimli bo'lish;
- o'zini-o'zi rivojlantirishga muhit yaratish;
- psixologik sog'lom muhit yaratish;
- ijodiy muhit;
- do'stona munosabatda ish yuritish;
- o'quvchi extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini ishga solish.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida qo'llaniladigan pedagogik ta'sir etish usullarini takomillashtirishda quyidagi tadbirlarni jonlantirish ko'zda tutiladi:

**Pedagogik ta'sir usuli** - bu aniq pedagogik holatlarni tashkil qilish usulidan iborat bo'lib, unda ma'lum qonuniyatlar asosida o'quvchilarning ijobiy ishlarida o'z kamchiliklarini yo'qotishga undovchi yangi fikrlar va hissiyotlar uyg'onadi.

Pedagogik ta'sirning har bir usuli o'zining tabiatli xususiyatlariga ega bo'lib, ular ikkita elementning o'ziga xos birligida vujudga keladi, y'ani

- a) yaratilayotgan pedagogik holatlar xususiyatlari;
- b) yangi pedagogik holatga o'quvchilarda tug'iladigan yangi fikrlar, tarbiyaning yangi sabablari va shaxsiy kamchiliklarini engib o'tishga asos bo'ladigan xissiyotlar mazmuni.

Pedagogik ta'sir usullaridan foydalanish aniq pedagogik tamoyillarga rioya kilishga asoslangan. Bu tamoyillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- pedagogik optimizm;
- o'quvchilarga hurmat;
- o'quvchining ruxiy holatini tushunish;
- o'quvchi shaxsiy tabiatining tashqi xususiyatlari va sabablarini ochish;
- o'quvchining taqdiri bilan qiziqish.

**Ishontirish uslubining asosiy shakllari** - tushuntirish, o'qtirish, g'oyaviy-siyosiy hamda axloqiy mavzularda suhbatlar, ma'ruzalar, munozaralar tashkil etish, uchrashuvlar uyushtirish, badiiy asarlar bilan tanishtirish, televidenie ko'rsatuvlari va teatr spektakllarini ko'rish hamda tahlil qilish va h.k.lardan iborat.

Kompetentli o'qituvchining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy qiyofasi:

- pokligi, to'g'ri so'zligi,
- qat'iyatligi,
- vijdoniyligi, xalolligi,
- o'z pozitsiyasini himoya qilaolishi,
- ongli tushunuvchi,
- o'qimishli, ziyoliligi,
- odamiylik, odamoxunligi,
- raximdillik, mehribonlik,
- samimiyligi, beg'arazligi,
- kamtarlik, kamsuqumlik,
- vijdonli, nomusli,
- oz zo`zida turuvchi kabi hislatlarga ega bo`lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan asosiy pedagogik talablar o'qituvchida mujassam bo`lsa kompetentli o'qituvchi sifatida o'quvchilarning bilish faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davletshin M. G. Psixologiya,- Toshkent: O'qituvchi, 2007.- 41-bet
2. Muslimov N.A. va boshqalar Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya Toshkent, TDPU, 2013.
3. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma, Toshkent, TDPU, 2014.